

XII. KORXONA VA OBYEKTЛАRNI XUSUSIYLASHTIRISH


O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma’lumotiga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 614 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo‘shgan holda) korxonalar va obyektlar (keying o‘rinlarda – obyektlar) xususiy lashtirildi.

Xususiy lashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra)

	Xususiy lashtirilgan korxonalar va obyektlar soni		Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar	
	birlik	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan foizda
O‘zbekiston Respublikasi	614	100,0	3 638,7	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	24	3,9	16,9	0,5
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	40	6,5	21,1	0,6
Buxoro	22	3,6	25,8	0,7
Jizzax	30	4,9	1,5	0,0
Qashqadaryo	55	9,0	10,3	0,3
Navoiy	22	3,6	4,2	0,1
Namangan	81	13,2	29,3	0,8
Samarqand	36	5,9	33,0	0,9
Surxondaryo	31	5,0	7,9	0,2
Sirdaryo	12	2,0	2,9	0,1
Toshkent	74	12,1	61,5	1,7
Farg‘ona	125	20,3	28,8	0,8
Xorazm	34	5,5	25,2	0,7
Toshkent sh.	28	4,5	125,2	3,4
Agentlik markaziy apparati	-	-	3 245,2	89,2

Hisobot davrida eng ko‘p xususiy lashtirilgan obyektlar soni Farg‘ona viloyatida–125 ta (20,3 %), Namangan viloyatida–81 ta (13,2 %), Toshkent viloyatida–74 ta (12,1 %), Qashqadaryo viloyatida–55 ta (9,0 %), Andijon viloyatida–40 ta (6,5 %), Jizzax viloyatida–30 ta (4,9 %), Samarqand viloyatida–36 ta (5,9 %) ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabrda vazirlik va idoralar kesimida xususiy lashtirilgan davlat obyektlarining tarkibi (jamiga nisbatan % da)




Korxonalar va obyektlarni xususiy lashtirish

Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari tarkibida eng ko'p ulush mahalliy hokimiyatlarga – 314 ta obyekt (respublika bo'yicha jami xususiylashtirilgan obyektlarning 51,0 % i), O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi – 90 ta obyekt (15,0 %), Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga – 133 ta obyekt (22,0 %), Xalq ta'limi vazirligiga – 6 ta (1,0 %) to'g'ri keldi.

2021- yilning yanvar-sentabrida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar 3638,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida respublika hududlari kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar tarkibi
(jamiga nisbatan % da)




Hududlar kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Agentlik MAga (barcha tushumlarning 89,2 %i), Toshkent shahri (3,4 %), Toshkent (1,7 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,2 %), Samarqand (0,9 %), Farg'ona (0,8 %) Namangan (0,8 %), va Xorazm (0,7 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Davlat noturar joy fondidan samarali foydalanish maqsadida 2021- yilning yanvar-sentabrida obyektlarni ijaraga berish bo'yicha 22,7 mingdan ortiq ijaraga shartnomalari tuzildi.

Natijada 5,0 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.



Davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlar jami 181,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shahriga (barcha tushumlarning 51,0 % i), Toshkent (7,0 %), Andijon (5,1 %), Farg'ona (4,7 %) va Samarqand (4,5 %) viloyatlariga to'g'ri keldi

**Korxonalar va obyektlarni
xususiylashtirish**

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyador jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha savdolar (kim oshdi savdolari) – sotuvchi yoki ko‘chmas mulk tashkiloti, shuningdek, kim oshdi savdolari va kim oshdi savdolarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilot, shu jumladan, elektron shaklda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotishni tashkillashtirish.

Xaridor – qonun hujjatlariga muvofiq, davlat mulki bo‘lgan ko‘chmas mulk obyekti (bundan buyon matnda oldi-sotdi shartnomasi deb yuritiladi) uchun sotuvchi bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzgan nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti).

Investisiya majburiyati – investor tomonidan investisiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun olgan majburiyati.

Ijtimoiy majburiyatlar – pul qiymatiga ega bo‘lmagan va qonunga zid bo‘lmagan shakllarda amalga oshiriladigan davlat mulkini sotishda xaridor tomonidan qabul qilingan majburiyatlar.

Auksion – tanlov asosida xaridor bilan savdoning shakli, bunda unga eng yuqori narxni taklif etgan ishtirokchi davlat mulkini sotish shartnomasini tuzish huquqini oladi. Auksionlar ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin.

Balansda saqlovchi – balansida davlat ko‘chmas mulki bo‘lgan yuridik shaxs.

Boshlang‘ich narx – kim oshdi savdosiga ochiq mulkni berish uchun sotuvchi tomonidan belgilangan narx.